

DUAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Qobulova Gulzoda Maxsud qizi
Urganch davlat universiteti 2-bosqich
211-tarix guruh magistranti
gulzodamagistr@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola oliy ta'lim tizimida dual ta'limni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarida katta ahamiyatga ega. Yoshlar-oliy ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasiga bo'lgan innovatsion talablarni o'rganish, umumiy yondashish kabi masalalar alohida o'rin egallagan.*

Kalit so'zlar: *Dual ta'lim, yoshlar-oliy ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi, major, concentration, kasbga yo'naltirish, jahon mehnat bozori, baholash, sertifikatlash.*

Oliy ta'lim tizimi - Yangi O'zbekistonni barpo etuvchi muhim omildir. Ta'lim tizimi salohiyati qancha baland bo'lsa, islohotlar maqsadiga erishish imkoniyati shuncha katta bo'ladi. "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi⁸. Islohotlar davomida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonining ochiq va shaffof tizimi yo'lga qo'yildi. Abituriyentlar onlayn shaklda hujjat topshirishlari, test topshirish hududini ixtiyoriy belgilashlari hamda 5 tagacha ta'lim yo'nalishini tanlashlari bilan bog'liq imkoniyatlar berildi. Mamlakatimizda o'qitish va baholashning xalqaro standartlariga o'tildi. Ta'lim jarayonida kredit-modul tizimi joriy qilindi. O'qitishning kredit-modul tizimida talabaga o'zlarining qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib tanlov fanlarni va professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati berdi. Oliy ta'lim tizimini boshqarishning raqamlashtirilgan tizimi HEMIS dasturining tadbiriq etilishi natijasida fanlarni o'zlashtirish va baholash jarayonlarida professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatda inson omili aralashuvining oldi olindi. Shuningdek, talabalarning o'qishini ko'chirish bugungi kunda to'liq tartibga solingan. Prezidentning 2022 yil 15 iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bir davlat OTMdanda boshqa davlat OTMga o'qishni ko'chirishga ikki holatda ruxsat berildi. Qolgan holatlarda "ichki ko'chirish"ga ruxsat yo'q qilindi. Xorijdan mos va turdosh bo'lmagan yo'nalishga o'qishni ko'chirishga ruxsat berilmaydi⁹. O'qishni ko'chirish to'liqligicha shaffof va korrupsiyadan xoli tarzda o'tkaziladi. Shuni e'tirof etish lozimki, professor-o'qituvchilarning obro'yi va maqomi oshirildi. Ularning moddiy daromadi va ijtimoiy

⁸ <https://yuz.uz/uz/news/davlat-oliy-talim-muassasalarining-akademik-va-tashkiliy-boshqaruv-mustaqilligini-taminlash-boyicha-qoshimcha-chora-tadbirlar-togrisida>

⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-6070845>

himoyasi (uy-joy, mashina, davolanish) yaxshilandi. Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatining ochiqligi ta'minlandi. Zaruriy axborotlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul kvotlari, bo'sh ish o'rinlari, moliyaviy hisobotlar, daromadlar va xarajatlar smetasi va boshqalar) oliy ta'lim muassasalarining internetdagi rasmiy saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlar va ishchi xizmatchilarni ishga qabul qilish bo'yicha shaffof tizim yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston oliy ta'limi sohasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bilim dargohlarining qiyofasi o'zgarib, moddiy-texnik bazasi yaxshilanib, ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchaytirilmoqda. Ta'lim jarayonini ortiqcha me'yorlashtirishni qisqartirish maqsadida oliy ta'limning 26 ta ta'lim sohasi bo'yicha davlat ta'lim standartlaridan voz kechildi va sohada ikkita ta'lim standarti qoldirildi. Mazkur standartlar YUNESKO tomonidan joriy etilgan "Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" asosida qayta ishlab chiqildi va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Endilikda Yangi O'zbekistonda yoshlar-oliy ta'lim-ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash muammosini hal qilish lozim. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun dual ta'lim tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Dual ta'lim tizimi — ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyati yaratiladi. Oliy ta'lim tizimida faqat Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida 3-4 bosqich talabalari uchun dual ta'lim asosida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bosqichma-bosqich barcha oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim shakli asosida kadrlar tayyorlashni amalga oshirish darkor. Bugungi kunda dual ta'lim tizimi Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa egadir. Mamlakatimizda dual ta'limni joriy etish maqsadida xususiy sektorni ham jalb qilinadi. Hududlardagi asosiy muammo ishsizlikga ijobiy yechim topishga yordam beradi. "Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismga taalluqligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni anglatadi. Dual ta'lim talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beradigan tizim hisoblanadi. Talaba yoshlarning 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxonada va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallashiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 15-moddasiga muvofiq, "Dual ta'lim" ta'lim olish shakllaridan biri sifatida kiritilgan¹⁰. Qonunda dual ta'lim bo'yicha alohida 17-modda ham ko'rsatib o'tilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida texnikaviy va hunar ta'limi barchaga muhayyo etilishi, oliy ta'lim esa har bir odamning qobiliyati asosida barcha uchun bir xil muhayyo etilishi kerakligi qayd etilgan.¹¹ Ta'lim inson shaxsining barkamolligiga hamda inson huquqlari va asosiy

¹⁰ <https://lex.uz/docs/5013007>

¹¹ <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

erkinliklariga hurmatning ortib boraverishiga qaratilishi lozim. G‘arb oliy ta‘lim muassasalarida talabaning “mutaxassislik fani” ikkita so‘z bilan ifodalanadi – “major” va “concentration”. “Major” – asosiy, eng muhim, eng jiddiy, ulkan ahamiyatga ega degan ma‘nolarni anglatadi. Ya‘ni maxsus mutaxassislik fanlar akademik, intellektual nuqtayi nazardan eng muhim, asosiy fanlar sanaladi. “Concentration” so‘zi esa, butun diqqat va e‘tiborni jamlash, yig‘ish degan ma‘nolarga ega. Ya‘ni talaba o‘zining mutaxassislik fanlariga butun diqqat-e‘tiborini, kuch-g‘ayratini sarflashi kerak deganidir. Zeroki, nazariya amaliyot bilan bog‘lanilsa muvaffaqiyatga olib keladi. Islohotlar kompleks chora-tadbirlar asosida amalga oshiriladi. Quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar qilinadi:

1. O‘zbekistondagi oliy ta‘limda dual ta‘limni rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish;
2. Oliy ta‘lim dasturlarini transformatsiya qilish;
3. Talaba yoshlarni kasbga yo‘naltirish;
4. Oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish;
5. Bitiruvchilarni baholash va sertifikatlash.

Jahondagi yetakchi mamlakatlar, jumladan Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya oliy ta‘lim muassasalarida dual ta‘lim shaklini joriy etish borasidagi tajribalari mavjud. Jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Oliy ta‘lim tizimini jahon ta‘lim tizimiga to‘liq integratsiya qilinishi xalqaro akademik va ilmiy mobillik kengayishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidagi oliy ta‘lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadlari ham amalga oshiriladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI. T.: “O‘zbekiston”. 2021.
2. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”. 2021.
3. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
4. <https://www.norma.uz>